O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING

KATTAQO‘RG‘ON FILIALI

Ro’yxatga olindi

№ BD-60410500

“TASDIQLAYMAN”
Direktor
Sh.R.Urakov
2022-yil “05” 09

Mehnat iqtisodiyoti

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410500 – Bank ishi va audit

Kattaqo’rg’on -2022

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MI 1605	2024-2025	6	5
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O'zbek		4

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
1.	Mehnat iqtisodiyoti	72	78	150

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – mehnat munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni, shu jumladan, mehnat mohiyati namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllari, chunonchi, ish bilan bandlik, mehnatni tashkil etish, unga haq to'lash, uning samaradorligi, mehnat sotsiologiyasi bilan bog'liq bir qator muammolarni o'rganashdan iboratdir.

Fanning vazifasi – talabalarga iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiyalash sharoitidamehnatni tashkil etish, mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish muammolarini o'rganish; iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirishning asosiy muammolarini aniqlash; bozor mexanizmi tizimida mehnat bozorining shaklanishi va rivojlanishi muammolarini o'rganish; jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida aholining ish bilan bandligi va ishsizlikni kamaytirishning yo'llarini aniqlash; korxonaning ish haqi tizimini tahlil qilish va mehnat ko'rsatkichlari tahlili; jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida aholi turmush darajasi daromadlarini oshirish muammolarini o'rganish; mehnat sohasida aniq sotsiolololik tadqiqotlar o'tkazish tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi va uning jamiyat rivojlanishidagi roli Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishida Arastudan F.Smitgacha bo'lgan davr. Arastu asarlarida tovarlarning qiyoslana olishi muammosi haqida. Uilyam Petti va Per Buagilber tomonidan mehnat haqidagi fanga asos solinishi. Fransua Kene ta'limotida qishloq xo'jalik mehnatining yoritilishi. A.Smitning mehnat unumdorligi oshishishning asosiy shartlari haqidagi nazariyasi. Mehnatning unumli va unumsiz mehnatga bo'linishi. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishida D.Rikardo ta'limoti. Qiymatga oid mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari. Mehnatni ikki tomonlama xarakteri. Abstrakt mehnat va real mehnat. —Mehnat to'g'risidagi nazariyaning rivojlanishida J.B.Sey , marjinalchilar va yangi klassiklarning roli. Bozor iqtisodiyoti va mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solib borish nazariyasi. Y.SHumpeter, J.M.Keyns va yangi klassik sintezlarning

qarashlari. Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi. Mehnat to‘g‘risidagi fanni yuzaga kelishida Islom iqtisodiyoti mafkurachilar va sharq iqtisodiy tafakkurining o‘rni. A.Temurning iqtisodiy goyalari. Sohibqironning iqtisodiy siyosati zamirida inson, uning manfaati va tinch hayot kechirish muammolarining ko‘rilishi.

2-mavzu: “Mehnat iqtisodiyoti” fanining predmeti va mazmuni

“Mehnat iqtisodiyoti” – fan sifatida. “Mehnat iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanni o‘rganish usullari. “Mehnat iqtisodiyoti” fanining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi. Mehnat haqidagi asosiy tushunchalar. Mehnatning inson va jamiyat faoliyatidagi o‘rni. Mehnatga oid asosiy qoidalar. Mehnatning mazmuni va xususiyatlari. “Mehnat”, “faoliyat”, “funksiya”, “bajarish” va “ish” tushunchalarining ishlatilish sohalari. Mehnat turlari: oddiy, murakkab, reproduktiv, ijodiy, funksional, professonal, aqliy, jismoniy, konkret, mavhum, xususiy, ijtimoiy, unumli, unumsiz, jonli, o‘tmishdagi va h.k, Mehnat – ishlab chiqarish omili sifatida. Mehnat elementlari va mehnat jarayoni. Mehnatning namoyon bo‘lish shakllari va funksiyalari. “Obod turmush yili” davlat dasturidan o‘rin ijtimoiy masalalarining tahlili va ularning ijrosi.

3-mavzu: Mehnat jarayonlarini tashkil etish

Mehnatni tashkil etish: mohiyati va hususiyatlari. —Mehnatni tashkil qilish tushunchasining paydo bo‘lishi. F.Teylorning —mehnatni ilmiy asosda boshqarish nazariyasi. Hodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan taminlashning mohiyati va mazmuni. Ijtimoiy mehnat munosabatlarini tashkil qilish. Insonning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi holati. Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi. Jamiyatda mehnat taqsimotining turlari. Korxonalarda mehnat taqsimotining asosiy ko‘rinishlari. Korxonada mehnat kooperatsiyasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari. Ish o‘rni - ishlab chiqarish makonining bir qismi. Ish o‘rnini ta’minlash. Ish o‘rnilarining bir qator belgilari. Ish o‘rinlarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko‘rsatish. Xizmat ko‘rsatish tizimi. Mehnat intizomi va uni rag‘batlantirish. Mehnat sharoitlari va ularga baho berish. CHet ellarda mehnat faoliyatini tashkil etish va oqilonalashtirish nazariyasining rivojlantirilishi. Mustaqil Hamdo‘stlik Mamlakatlarida va O‘zbekistonda mehnatni tashkil etish nazariyalarining rivojlanishi.

4-mavzu: Bozor xo‘jaligi tizimida mehnat bozori

Mehnat bozori: mohiyati, mazmuni va tuzilishi. Mehnat bozori – bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida. Mehnat bozorining asosiy elementlari. Mehnat bozori tizimini boshqarishning konseptual modeli. Mehnat bozorida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari. Tashqi va ichki mehnat

bozorlari elementlarining o‘zaro harakati. Mehnat bozori kon’yukturasi. Mehnat bozorining ishlash mexanizmi. Talab vataklifning o‘zaro aloqadorligi. Mehnat bozorining asosiy turlari: ularning segmentlarg abo‘linishi va moslashuvchanligi. Mehnat bozoridagi taklif va ehtiyoj. Mehnat bozoridagi raqobat. Mehnat bozor imodellari. Mehnat bozorining segmentlarga bo‘linishi va moslashuvchanligi. YOllanma xodimlar bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori sub’ektlari bilan ularning vakillari o‘rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori sub’ektlari bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar. Birlamchi va ikkilamchi mehnat bozorlarining asosiy xususiyatlari. Ayollarning mehnat bozoridagi ahvoli. Mehnat bozori va uning rivojlanishi bo‘yicha nazariy qarashlar. Demografik tendensiyalar va ularning mehnat bozoriga ta’siri. Aholining keksayish muammosi. O‘zbekistondagi demografik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari. Mehnat bozoridagi tamoyillar: globallashuv va milliy manfaatlar. Mehnat bozori va uni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari.Mehnat bozoridagi davlat siyosatiningasosiy yo‘nalishlari. Mehnat bozoridagi faol va nofaol siyosat. Davlat ish bilan bandlik xizmati va uning faoliyati. Mustaqil ish bilan bandlik va uning shakllari. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning mehnat bozoriga ta’siri. Mehnat bozorini tartibga solish yo‘nalishlari.

5-mavzu: Mehnat resurslari va mehnat potensiali

Mehnat resurslari – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Mehnat resurslarining shakllanishi. Mehnat resurslari tasnifi. Aholining mehnat yoshiga ko‘ra guruhlarga taqsimlanishi. Mehnat salohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Mehnat salohiyatining son va sifat jihatidan shakllanishi. Mehnat salohiyatining tegishlilik xususiyatiga ko‘ra tasniflanishi va darajalashuv omillari. Mehnat salohiyati va mehnat resurslarining shakllanishida inson omilining o‘rni. Inson omilining kapitallashuv va potensiallashuv jarayoni. “Inson kapitali” tushunchasining mohiyati. Inson kapitalining shakllanish jarayoni. Mehnat resurslarining shakllanishi va unga demografik omillarning ta’siri. O‘zbekiston Respublikasining asosiy demografik ko‘rsatkichlari. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish yo‘llari.O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari. Mehnat resurslari balansini tuzish va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash uslubiyoti. Ishga joylashishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi toifalarini hisobga olish shakllari.

6- mavzu. Aholini ish bilan bandligi nazariyalari va ularni amalda qo‘llanilishi

Aholini ish bilan bandligining klassik va neoklassik nazariyalari. Klassik maktabning namoyandalari A.Smit va D. Rikardo ta’limotlarida bozor

xo‘jaligida to‘liq ish bilan bandlik nazariyasining asoslanishi. J.Keyns va neokeynschilaning ish bilan bandlik nazariyasi. Hozirgi zamon neoklassik nazariyalarida ish bilan bandlik masalalari. A.Fillips inflyasiya va ishsizlikning bir-biriga bog‘liqligi haqida. Fillips egri chizig‘i. Monetaristlar va neokonservatizm yo‘nalishlarining vujudga kelishi. Milton Fridman maktabi. Ishsizlikning tabiiy me’yori to‘g‘risidagi gipotezalar. Neoklassik sintez. Ish bilan bandlikning hozirgi zamon nazariyalaridan foydalanish. Ish bilan bandlikning yangi makroiqtisodiy nazariyasi. SHartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi. Institutsional yo‘nalish. tuzish, tarmoq grafiklarini marketing faoliyatida qo‘llashning xususiyatlari.

7-mavzu: Aholi ish bilan bandligining shakllanishi va mohiyati

Ish bilan bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va mazmuni. Ish bilan bandlik shakllarining tasnifi. Aholining ish bilan bandlik konsepsiyasi. Ish bilan ta’minlash munosabatlarining shakllanishi. O‘zbekiston Respublikasining“Aholini ish bilan bandligi to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan bandlikning asosiy tamoyillari. Ish bilan bandlik sohasida ijtimoiy-demografik guruhlar. Aholini ish bilan bandligining asosiy turlari. Ish bilan bandlik darajasi. Oqilona ish bilan bandlik. Samarali ish bilan bandlik. Mahsuldor ish bilan bandlik. Engmaqbulishbilanbandlik. Ish bilan bandlikning noan’nanaviy shakllari. Ish bilan bandlik maqomi. Ish bilan bandlik samaradorligi. Aholini ish bilan ta’minlash mezonlari. Aholining ish bilan bandligini ta’minlash borasida davlat siyosatining amalga oshirilishi.

8- mavzu. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning mehnat bozoriga ta’siri vakolatlarni taqsimlash

Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati.Ishchi kuchi migratsiyasiga ta’sir etuvchi omillar va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri. Mehnat resurslari hududiy safarbarligining mohiyati. Mehnat resurslarining mexanik harakati. Hududlar bo‘yicha mehnat resurslarining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Mehnat resurslarining migratsion harakati. Mehnat resurslarining migratsion harakatiga ta’sir etuvchi omillar. Emmigratsiya. Immigratsiya. Reemmigratsiya. Migratsiya ko‘rsatkichlari. Migratsion harakatning intensivligi. Migratsiya saldosi. Migrantlar oqimi. Mehnat resurslarining hududiy safarbarligini tartibga solish yo‘llari. Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi va uning asosiy ko‘rinishlari. Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatidagi mehnat migratsiyasining ko‘lami va geografiyasi. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi bo‘yicha davlat siyosatining amalga oshirilishi

9-mavzu: Ishsizlik: sabablari, xususiyatlari va kamaytirish yo‘llari

Ishsizlik haqida umumiy tushunchalar. Ishsizlik shartlari. A.Ouken qonuni.

Ishsizlikning tarqalishi va ishsizlar xarakati. Ishsizlikning davomiyligi. Ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, uni tayinlash va to‘lash tartibi. Ishsizlikning kelib chiqish sabablari va namoyon bo‘lish xususiyatlari. O‘zbekistonda ishsizlikning o‘sish sabablari. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Ishsizlik tasnifi. Ishsizlik turlari: tabiiy, majburiy, tarkibiy, friksion, davriy, yashirin ishsizlik. Ishsizlikning turli mezonlari bo‘yicha tasnifi. Ishsizlikni kamaytirish yo‘llari. Ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoya qilish siyosati. Ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosatining umumiy tuzilmasi. Ish bilan bandlikning o‘sishini rag‘batlantirish yo‘nalishlari. Ishsizlikning jamiyat hayotiga ta’siri. Aholini ishsizlikdan himoya qilish bo‘yicha davlat siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari. Ishsizlarning ijtimoiy himoya qilishda Ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish jamg‘armasining o‘rni. Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati. Ishsizlarni kasbga qayta o‘qitish va ta’lim berish tizimini kengaytirish. Bo‘sh ish joylari haqida axborotlarni tarqatish.

9-mavzu: Mehnat unumdorligi: tushunchasi, o‘lchash omillari va zahiralari.

Mehnat unumdorligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Ijtimoiy va yakka tartibdagi mehnat unumdorligi hamda ularni aniqlash usullari. “Mehnat tig‘izligi” tushunchasi va uning mohiyati. Mehnat intensivligi va og‘irligi. Korxonalarda mehnat unumdorligining oshishi. Mehnat unumdorligi mazmunini aks ettiruvchi matematik modellar. Mehnat unumdorligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligini aniqlashga doir yondashuvlar. Jonli va moddiylashgan mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi. Jami mehnatni aks ettiruvchi ko‘rsatkich. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi. Ishlab chiqarishning natijasi va mahsuldorligi. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori. Mehnat unumdorligini o‘lchash usullari. Mehnat unumdorligini hisoblashdagi mahsulot hajmi va mehnat sarflari ko‘rsatkichlari. Natural usul. SHartli-natural usul. Mehnat usuli. Qiymat usuli. Mehnat sig‘imi ko‘rsatkichi. Mahsulotning qiymat ko‘rsatkichlarini ishlab chiqarishning turli omillari bilan kombinatsiyalashuvi. Mehnat unumdorligi va mehnat intensivligi nisbati. Mehnat unumdorligi oshishi omillari: moddiy-texnik, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-ruhiy omillar. Mehnat unumdorligi oshishi zahiralari:umumdavlat, mintaqaviy, tarmoqlararo, ishlab chiqarish, foydalanish, joriy va istiqboldagi zahiralar. Mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari.

11- mavzu Aholining turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish.

Aholi daromadlari va ularni taqsimlanishi bo‘yicha nazariy qarashlar. Turmush darajasining iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, qiymat va natural

ko‘rsatkichlari. Aholi turmush darajasini tahlil qilishning asoslari. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari. Aholi daromadlarining manbalaridan unumli foydalanish yo‘nalishlari. Aholi daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari va omillari. Aholi daromadlarini taxlil qilish asoslari. Aholi daromadlarini tahlil etishning yutuqlari va kamchiliklari, hamda ularni bartaraf etish yo‘llari.Aholi daromadlarini oshirishning muammolari va ularni echimlari. Kam ta’minlangan aholining daromadlari va ularni oshirish uchun yangi manbalarni izlab topish. Qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, fermer xo‘jaliklari rivojini har tomonlama qo‘llabquvvatlashdan eng muhim ustuvor vazifa sifatida.

12- mavzu. Personal va inson resurslarini boshqarish

Insonni tashkilotdagi roli to‘g‘risidagi boshqaruv nazariyasi. Iqtisodiy hayot sub’ekti to‘g‘risidagi tasavvurning rivojlanishi. Boshqaruv nazariyalarining tasnifi. —Tizim, —boshqaruv, —tartibga solish, —personal tushunchalarining metodologik ahamiyati. A.Fayolning ma’muriy faoliyatga ta’luqli 14 tamoyili. Mehnat taqsimoti. Hokimiyat. Intizom. Biron-bir ijtimoiy tuzilmadagi intizomning ahvoli. Buyruq berish birligi. Rahbarlikning birligi. Hususiy manfaatlarning umumiy manfaatlarga bo‘ysunishi. Personalni rag‘batlantirilishi. Markazlashtirilish. Ierarxiya. Tartib. Adolat. Personal tarkibining doimiy bo‘linishi. Tashabbuskorlik. Personalni birlashtirish. —Fordizm tizimining vujudga kelishi. Personalni ijtimoiy psixologik jihatdan boshqarishning nazariy muammolari. Inson potensialini faollashtirishning omillari. Korxonalarda personalni shakllantirish va tashkil qilish amaliyoti. O‘zbekiston korxonalarida personal xizmati. Personalni boshqarishning xorijiy tajribalari va ulardan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari.

13- mavzu.Ish haqini tashkil etish va uni isloh qilish

Ish haqining mohiyati va uning shakllanishi. Ishchi kuchining foydaliligi va bahosi. Hodimlar uchun ish haqi. Tadbirkor uchun ish haqi. Ish haqini bozor qonunlari asosida tashkil etish mexanizmining asosiy unsurlari. Ish haqining rag‘batlantiruvchilik vazifasi. Mehnatga haq to‘lashning takror ishlab chiqarish vazifasi. Mehnatga haq to‘lashning tartibga soluvchi vazifasi. Mehnat unumdorligi oshishi Ish haqining elementlari. Ish haqini tashkil etish tamoyillari -daromadlar va mehnatga haq to‘lash siyosatini ishlab chiqishning metodologik asosi. Ish haqini tashkil etish tamoyillari va vazifalarining aloqadorligi. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlar daromadlarining asosiy

turlari. Xodimlar manfaatdorligi tizimi. Ish haqini tashkiliy asoslari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarning ish haqi funksiyalari. Tarif tizimining mohiyati va elementi. Tarif malaka spravochnigi.Tarif jadvali. Tarif bo'yicha tabaqalashning iqtisodiy omillari. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Korxonada mehnatga haq to'lashning tashkiliy asoslari. Korxonada ish haqi fondini rejalashtirishning mohiyati, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari. Ish haqini rejalashtirishning takomillashtirish yo'llari. Mamlakatni yangilash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ish haqini isloh qilish yo'nalishlari

14- mavzu. Mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etish

Mehnatga haq to'lash tizimlari tushunchasi va ularning tasnifi. Ish haqini tashkil etish amaliyotidagi mehnatni normalashning tarif va tashkiliy texnik turlari. Asosiy va qo'shimcha ish haqi. Ish haqining ishbay hamda vaqtbay tizimlarini qo'llash. Mehnatga haq to'lashningoddiy ishbay va oddiy vaqtbay tizimi. Mehnatga haq to'lashning akkord tizimi. Mehnatga haq to'lashning bilvosita usuli. Mehnatga haq to'lashning moddiy tizimlari. Haq to'lashning rag'batlantiruvchi tizimlari. Asosiy ish natijalari uchun rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash. Korxonalarda ish haqiga qo'shimchalar, ustamalar va bir marta beriladigan mukofotlarni qo'llash. Ish natijalari. Ish samaradorligi. Individual mukofotlash. Rag'batlantiruvchi qo'shimchalar va ustamalar.

15- mavzu. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zaruriyati, mohiyati, turlari. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari.—Ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari. Ijtimoiy muhofaza tizimi. —Ijtimoiy xatar kategoriyasi. Ijtimoiy muhofaza sub'ektlari. Ijtimoiy muhofaza darajalari. Ijtimoiy muhofaza predmetlari va ularning tarkibi. Ijtimoiy muhofaza prinsiplari. Ijtimoiy muhofazani baholash mezonlari. Samarali ijtimoiy muhofazalash. Ijtimoiy institutlar va xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi. Ijtimoiy muhofaza shakllari va mexanizmlarini amalga oshirishda davlatning roli. Ijtimoiy kafolatlar. Ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasini shakllantirish tarixi. Yollanma xodimlar huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish. Ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari. Ijtimoiy kafolatlarning asosiy vazifasi. Mehnatga qobiliyatli aholining ijtimoiy kafolatlari to'g'risidagi qonunlar. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli tizimi. Aholinining kam ta'minlangan qismini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishning o'zi xos xususiyatlari va manbalari. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy muhofaza qilish samaradorligini oshirish yo'llari. Ishsizlarni ijtimoiy

muhofaza qilish mexanizmlari. Nafaqaxo‘rlarni ijtimoiy muhofazalash. Aholining ijtimoiy muhofaza qilishni samarali tizimini vujudga keltirish muammolari. Xorijiy mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tajribalari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.

16- mavzu. Bozor munosabatlari tizimida mehnatni boshqarish

Mehnatni boshqarish xususiyatlari. Ijtimoiy mehnat sohasi. Mehnatni boshqarish funksiyalari. Mehnatni boshqarish tizimi. Mehnatni boshqarish turlari va metodlari. Mehnatni boshqarishning davlat shakllari. Mehnatni boshqarishning shartnomali shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining mehnatni boshqarishdagi roli. Mehnat vazirligining asosiy vazifalari. Mehnat vazirligining boshqaruv jarayoni. Vazirlik faoliyatini tashkil etish. Mehnat vazirligiga bo‘ysunuvchi tashkilotlar. Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajalarda mehnatni boshqarish. Mehnatni boshqarishning xalqaro darajasi. XMTning asosiy vazifalari. Korxona mehnatni boshqarish. Davlat darajasida mehnatni boshqarish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatni boshqarish tizimini takomillashtirish.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg’ulotlar bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu: Mehnat to‘g‘risidagi fanning yuzaga kelishi va uning jamiyat rivojlanishidagi roli
2-mavzu: Mehnat iqtisodiyotining predmeti va uslubiyati
3-mavzu: Mehnat jarayonlarini tashkil etish
4-mavzu: Bozor xo‘jaligi tizimida mehnat bozori
5-mavzu: Mehnat resurslari va mehnat potensiali
6-mavzu: Aholini ish bilan bandligi nazariyalari va ularni amalda qo‘llanilishi
7-mavzu: Aholi ish bilan bandligining shakllanishi va mohiyati
8-mavzu: Ishchi kuchi migratsiyasi va uning mehnat bozoriga ta’siri
9-mavzu:Ishsizlik: sabablari, hususiyatlari va kamaytirish yo‘llari
10-mavzu:Mehnat unumdorligi: tushunchasi, o‘lchash omillari va rezervlari
11-mavzu: Aholining turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish
12-mavzu: Personal va inson resurslarini boshqarish
13-mavzu: Ish haqini tashkil etish va uni isloh qilish
14-mavzu: Mehnatga haq to‘lash tizimlarini tashkil etish
15-mavzu: Aholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari
16-mavzu: Bozor munosabatlari tizimida mehnatni boshqarish Mehnat to‘g‘risidagi fanning yuzaga kelishi va rivojlanishi
17-mavzu. Mehnatga haq to`lashni tartibga solish
18-mavzu. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish shakllari

19-mavzu. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlarini amalga oshirishda davlatning roli
20-mavzu. Mehnatni boshqarish xususiyatlari

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

"**Mehnat iqtisodiyoti**" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va modernizatsiyalashgan jamiyatdagi zaif gurux va qatlamlar muammolarini echishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar, esse, prezentatsiyalar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- komp'yuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat, esse, prezentatsiyalar va konspektlar tayyorlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- interaktiv va muammoli o'qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta'limni tashkil etishda qatnashish.

Fan bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari oldindan berilgan mavzular asosida taqdim etiladi:

1. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiyalash sharoitida. Mehnatni tashkil etishni takomillashtirish muammolari.
2. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mehnat bozorini faoliyat ko'rsatishining iqtisodiy mexanizmi.
3. Aholi farovonligini oshirishda aholini ish bilan bandligini oshirish mexanizmlari.
4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirish.
5. Ijtimoiy-mehnat safarbarligi holatini tahlili va prognozi.
6. Ijtimoiy institutlar va xodimlarni ijtimoiy muxofaza qilish mexanizmi.
7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar mexnatidan foydalanish xolatini taxlili.
8. Xodimlarni boshqarish samaradorligini oshirish.
9. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda malakali agrar mehnat bozorini

shakllanishi.

10.Korxonada qo‘llanilayotgan mukofotlash tizimining tahlili va uni takomillashtirish.

11.Mehnat unumdorligini ko‘rsatkichlarini monitoringi.

12.Mehnat unumdorligini ko‘rsatkichlarini monitoringi.

13. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda qishloqda yoshlarni ish bilan ta’minlashning iqtisodiy mexanizmi.

14.Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda qishloqda yoshlarni ish bilan ta’minlashning iqtisodiy mexanizmi.

Mustaqil o’zlashtiriladigan mazular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Kurs ishi mavzulari

1. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiyalash sharoitida.
2. Mehnatni tashkil etishni takomillashtirish muammolari.
3. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda mehnat bozorini faoliyat ko‘rsatishining iqtisodiy mexanizmi.
4. Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish muammolari.
5. Mehnat resurslari balansini ishlab chiqish metodikasi.
6. Mehnat bozorini shakllanishi va rivojlantirish muammolari.
7. Aholi farovonligini oshirishdaaholini ish bilan bandligini ta’minlash va ishsizlikni kamaytirish muammolari.
8. Korxonada mehnat unumdorligi: tahlil qilish, rejalashtirish.
9. Korxonaning ish haqi tizimi: tahlil qilish, rejalashtirish va prognozlashtirish
10. Aholi farovonligini oshirishdaaholining turmush darajasi va daromadlar, hamda ularni davlat tomonidan tartibga solish muammolari.
11. Mehnatga bo‘lgan munosabat va mehnat natijalaridan qoniqish muammolari.
12. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitidaaholini ijtimoiy muhofaza qilish muammolari.
13. Halqaro mehnat tashkiloti. Ijtimoiy mehnat muosabatlarini tartibga solish.
14. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini rivojlantirish.
15. Ijtimoiy institutlar va xodimlarni ijtimoiy muxofaza qilish mexanizmi.
16. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar mexnatdan foydalanish xolatini taxlili.
17. Xodimlarni boshqarish samaradorligini oshirish.
18. Korxonada qo‘llanilaètgan mukofotlash tizimining tahlili va uni takomillashtirish.
19. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda èshlarni ish bilan ta’minlashning iqtisodiy mexanizmi.
20. Xorijda ish xaqini tashkil etish.
21. Xalqaro mehnat tashkilotining faoliyatini tashkil etilishi.
22. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tashkil qilish
23. Insonning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi holati
24. Mehnat faoliyatini tashkil etish va oqilonalashtirishga oid xorijiynazariyalarning rivojlanishi
25. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida va O‘zbekistonda mehnatni tashkil etish nazariyalarining rivojlanii
26. Ish bilan bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati
27. Aholiniig ish bilan bandligi, uning asosiy turlari va shakllari
28. Aholining ish bilai bandligini ta’minlash borasida davlat siyosatining amalga oshirilishi
29. Kasanachilik mehnati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari
30. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish

4	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari** Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning • "Klaster"; • "Bumerang"; • "Fikrlar hujumi", • "Munozarali dars", • "FSMU" singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi va mashg'ulotlardagi ma'lumotlar multimedia vositalari yordamida taqdimot qilinadi.
5	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
	Asosiy adabiyotlar
6.	1. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyoti. Darslik. T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2019.-590 bet. 2. Ulug'murodova N.B. Mehnat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. S.: SamDU, nashriyoti, 2021.-240 bet. 3. Abdurahmonov Q.X., Adilova G.A., Kurboniyozov I. R., Fayzieva M.K. Mehnatni tashkil etish va normalash. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2011.-270 bet. 4. Abdurahmonov Q.X Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. T.: TDIU, "Fan va texnologiya", 2012.-388 bet. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2023. – 76 b. 9 bob. 2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.:"Adolat", 2023. – 488 b. 3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020-y. 5. Nazarov A.SH. Mehnatni tashkil etish va normalash: (Darslik) – T.: TDIU, 2004 – 241 bet. 6. Xolmo'minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti, O'quv qo'llanma.-T.: 2013.-228 b. 7. Бухалков М.И. Организация н нормирование труда: Учбеник для вузов.-3е изд. и доп.-М.:ИНФРА-М, 2010-424с.

	Axborot manbalari (saytlar): 1. www.gov.uz 2. www.lex.uz 3. www.economist.com 4. www.worldeconomics.com 5. www.tradingeconomics.com
7.	Fan dasturi SamDUKF kengashining 2022 yil 5-sentyabr avgustagi son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan modul uchun mas'ullar:** N.B.Ulug'umuradova– SamDU KF, "Raqamli texnalogiyalar va iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti
9.	**Taqrizchilar:** B.Boboqulov – SamDU, Tarmoq iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi (ichki) Sh.Sultonov – SamISI, Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (tashqi)